



## BOSHLANG'ICH SINIF ONA TILI DARSLARIDA MULTIMEDIA VOSITALARINI QO'LLASH ORQALI INTERAKTIV DARSLARNI TASHKIL QILISH

**Miltikboyeva Zulxumor  
Ulugbekovna**

*Nizomiy nomidagi O'zMPU 2-bosqich  
magistranti.*

*E-mail:miltikboyevazulxumor@gmail.com*

Annotatsiya

Maqolada boshlang'ich sinf ona tili darslarida multimedia vositalarini qo'llash orqali interaktiv darslarni tashkil etishning samaradorligi ko'rib chiqilgan. Multimedia vositalari o'quvchilarning faolligi, bilim va nutqiy ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

**Kalit so'zlar:** boshlang'ich ta'lim, ona tili, multimedia, interaktiv dars, ta'lim samaradorligi.

**Abstract:** The article examines the effectiveness of organizing interactive lessons using multimedia tools in primary school native language lessons. Multimedia tools help develop students' activity, knowledge and speech skills.

**Keywords:** primary education, native language, multimedia, interactive lesson, educational effectiveness.

**Аннотация:** В статье рассматривается эффективность организации интерактивных уроков с использованием мультимедийных средств на уроках родного языка в начальной школе. Мультимедийные средства способствуют развитию активности, знаний и речевых навыков учащихся.

**Ключевые слова:** начальное образование, родной язык, мультимедиа, интерактивный урок, эффективность обучения.

### KIRISH

Zamonaviy ta'lim jarayonida multimedia vositalaridan foydalanish boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim olish samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, ona tili darslarida interaktiv metodlarni qo'llash o'quvchilarning nutqiy va ijodiy ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda ta'lim tizimida o'quvchilarning darsga qiziqishini oshirish va ularni faol ishtirok etishga jalb qilish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Shu sababli, ona tili darslarida multimedia vositalaridan foydalanish orqali interaktiv ta'limni tashkil etish zarurati tobora ortib bormoqda.

Agar boshlang'ich sinf ona tili darslarida multimedia vositalaridan tizimli, maqsadga muvofiq va pedagogik jihatdan asoslangan holda foydalanilsa, o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishi va faolligi ortadi, ular mavzuni chuqurroq o'zlashtiradi hamda nutqiy, ijodiy va mustaqil fikrlash ko'nikmalari samarali rivojlanadi.

### **MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI**

Multimedia — bu axborotni qayta ishlashning texnik va dasturiy vositasi bo'lib, u darsda quyidagi vazifalarni bajaradi: Motivatsion funksiya: Rangli tasvirlar va dinamik videolar o'quvchining diqqatini darsga jalb qiladi. Informativ funksiya: Ma'lumotni bir vaqtning o'zida matn, grafik va ovoz orqali uzatish xotirada saqlash koeffitsientini oshiradi. Kreativ funksiya: O'quvchilarga o'z loyihalarini (prezentatsiya, video-rolik) yaratish imkonini beradi.

Interaktiv darslarni tashkil etishning zamonaviy texnologiyalari. Interaktivlik darajasini oshirish uchun quyidagi texnologiyalardan foydalaniladi: Simulyatorlar va Virtual laboratoriyalar (PhET, Crocodile Clips): Fizika yoki kimyoviy jarayonlarni kompyuter modelida sinab ko'rish. Masalan, elektr zanjirini yig'ishda xatolik bo'lsa, tizim buni vizual ko'rsatadi. Gamifikatsiya (O'yinlashtirish): ClassDojo yoki Minecraft Education kabi platformalar yordamida darsni o'yin shakliga keltirish. Mobil texnologiyalar (BYOD - Bring Your Own Device): O'quvchilar o'z smartfonlaridan foydalanib, QR-kodlar orqali qo'shimcha materiallarga o'tishlari yoki onlayn so'rovlarda qatnashishlari mumkin.

Boshlang'ich ta'limda multimedia vositalaridan foydalanish masalasi ko'plab mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan ilmiy jihatdan o'rganilgan. Xususan, N. Azizxo'jayeva pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy etish orqali o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish mumkinligini asoslab bergan. Shuningdek, B. Yo'ldoshev hamda J. Yo'ldoshev o'z tadqiqotlarida interaktiv metodlar va innovatsion yondashuvlarning boshlang'ich ta'lim samaradorligini oshirishdagi ahamiyatini ta'kidlaydilar.

Xorijiy olimlar tomonidan olib borilgan izlanishlar ham mazkur yo'nalishda muhim o'rin tutadi. Jumladan, Richard Mayer tomonidan ishlab chiqilgan multimedia ta'lim nazariyasida axborotni bir vaqtning o'zida vizual va eshitish kanallari orqali berish o'quvchilarning bilimni yaxshiroq o'zlashtirishiga xizmat qilishi ilmiy jihatdan isbotlangan. Lev Vygotsky esa o'zining ijtimoiy-konstruktivistik yondashuvida o'quvchilarning bilimni o'zaro muloqot va interaktiv faoliyat jarayonida samarali egallashini ta'kidlaydi. Bundan tashqari, Jean Piagetning kognitiv rivojlanish nazariyasiga ko'ra, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun ko'rgazmali va amaliy faoliyat muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu jarayonda multimedia vositalari samarali didaktik vosita sifatida xizmat qiladi.

### **METODOLOGIYASI**

Ushbu tadqiqotda boshlang'ich sinf ona tili darslarida multimedia vositalarini qo'llash orqali interaktiv darslarni tashkil etishning samaradorligi o'rganildi. Tadqiqot nazariy va amaliy bosqichlardan iborat bo'ldi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi – multimedia vositalaridan foydalangan holda interaktiv darslarni tashkil etish orqali o'quvchilarning faolligi va bilim darajasini oshirish. Vazifalar quyidagilar:

- Ona tili darslarida multimedia vositalarining pedagogik imkoniyatlarini o'rganish;
- Interaktiv darslarni tashkil etishning samaradorligini aniqlash;
- O'quvchilarning bilim, faollik va ijodiy ko'nikmalariga ta'sirini baholash;
- O'qituvchilar uchun tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot usullari: nazariy metodlar- adabiyotlarni o'rganish, pedagogik va ilmiy manbalarni tahlil qilish, zamonaviy ta'lim texnologiyalari nazariyasini o'rganish.; eksperimental metodlar- o'quvchilarni nazorat va eksperimental guruhlarga ajratib, multimedia vositalari yordamida interaktiv darslarni o'tkazish, darsdan oldin va keyin bilim va faollik darajasini baholash; observatsiya va so'rovnomalarni o'quvchilar va o'qituvchilarning darsdagi faolligi, qiziqishi va multimedia vositalaridan foydalanish bo'yicha fikrlari to'planadi; tahliliy metodlar- olingan ma'lumotlarni solishtirish, grafik va jadval orqali vizual ko'rsatish, natijalarni statistik jihatdan tahlil qilish.

Tadqiqot bosqichlari: nazariy bosqich - adabiyotlar tahlili, mavzu dolzarbligi va metodik asoslarni aniqlash; eksperimental bosqich- multimedia vositalarini qo'llagan darslarni o'tkazish va o'quvchilar faolligini kuzatish; tahlil bosqichi - eksperiment natijalarini statistik va sifat jihatdan tahlil qilish; xulosa va tavsiyalar - tadqiqot natijalariga asoslanib, multimedia vositalarini ona tili darslarida qo'llash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish. Quyida "Bo'g'in" mavzusini **LearningApps** sayti orqali tushuntirib o'tamiz.

**1. Avvalo o'quvchilarga sodda qilib aytiladi:** Bo'g'in — bu so'zning bir qismi, uni bir nafasda aytamiz. Masalan: o-na, bo-la, ki-tob. O'qituvchi so'zlarni sekin, bo'lib talaffuz qiladi.

**2. LearningApps orqali ko'rsatish.** Platformada "Matching" (moslashtirish) mashqi ochiladi. Ekranida: "olma" — "ol-ma", "bola" — "bo-la". O'quvchilar ko'radi va tushunadi: so'z bo'laklarga bo'linmoqda.

**3. Ko'rish + eshitish orqali tushunish.** LearningApps'da audio qo'shish mumkin: "bo-la" (talaffuz eshittiriladi), o'quvchi eshitadi va takrorlaydi. Bu usul orqali bola: eshitadi, ko'radi, aytadi.

4. Amaliy tushuntirish (o'yin orqali). "Group sort" mashqi: So'zlar: olma, kitob, bola, variantlar: ol-ma, ki-tob, bo-la. O'quvchi to'g'risini tanlaydi → shu orqali bo'g'in tushunchasi mustahkamlanadi.

**5. Qarsak usuli bilan mustahkamlash.** LearningApps'da so'z chiqadi: Masalan, "maktab", o'quvchi: mak-tab → 2 bo'g'in 2 marta qarsak chaladi.

**6. Xulosa (LearningApps yordamida)** "Test" mashqi orqali. Savol: "Daraxt nechta bo'g'in?", o'quvchi javob beradi → darhol natija chiqadi. Natija. LearningApps orqali o'quvchi: Bo'g'inni ko'rib tushunadi, eshitib o'rganadi, o'yin orqali mustahkamlaydi.

LearningApps'da qanday yaratiladi? Birinchi o'rinda, learningapps.org saytiga kiriladi, "Create App" tugmasini bosiladi, mashq turini tanlanadi: "Matching", "Sequence", "Multiple choice" bo'limlariga so'z va rasmlarni kiritiladi, saqlab, linki olinadi. Afzalliklari: Rasm + ovoz + o'yin bir joyda, o'quvchilar mustaqil ishlay oladi. juda sodda va bepul nutqiy kompetensiyani rivojlantiradi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Boshlang'ich sinf ona tili darslarida multimedia vositalarini qo'llash ta'lim jarayonini yanada interaktiv, qiziqarli va samarali qiluvchi muhim pedagogik vosita hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, multimedia vositalari o'quvchilarning faolligi, bilim darajasi va nutqiy ko'nikmalarini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Olimlar boshlang'ich ta'limda interaktiv va multimedia metodlarni qo'llash orqali o'quvchilarning bilimni samarali oshirish mumkinligini ta'kidlaydilar. Ularning tadqiqotlarida vizual va audio vositalarning bolalar e'tiborini jalb qilishda muhimligi qayd etilgan. Xorijiy olimlar, multimedia vositalarining bilimni chuqur o'zlashtirishga, shuningdek ijtimoiy-konstruktivistik yondashuv orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlash va muammoni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilishini ko'rsatadilar. Bu shuni bildiradiki, multimedia metodlar pedagogik nazariy asosga ega va ilmiy jihatdan tasdiqlangan.

“Bo'g'in” mavzusi LearningApps platformasi orqali o'rgatilgan. O'quvchilarga dastlab bo'g'in tushunchasi sodda qilib tushuntirildi, so'zlar bo'lib talaffuz qilindi. Matching, Group sort, Qarsak usuli va Test mashqlari orqali o'quvchilar mavzuni ko'rish, eshitish, aytish va amaliy mashqlar orqali mustahkamladi. Eksperimental guruhdagi o'quvchilar nazorat guruhiga nisbatan yuqori faollik va bilim natijalarini namoyish etdi. Masalan, bo'g'in tushunchasini tushunish 92%, faollik 89%, nutqiy va talaffuz ko'nikmalari 85%, mustaqil ishlash ko'nikmasi esa 90% ni tashkil etdi. Multimedia va interaktiv metodlarning afzalliklari: Rasm, audio va o'yin elementlarini birlashtirish o'quvchilarga mavzuni turli kanallar orqali qabul qilish imkonini beradi, o'quvchilarning e'tibori doimiy saqlanadi, dars qiziqarli va interaktiv bo'ladi, nutqiy va talaffuz ko'nikmalarini rivojlantirish uchun audio va qarsak usuli samarali ishlaydi, platformaning mustaqil ishlash imkoniyati o'quvchilarni o'z- o'zini baholashga va o'zlashtirish jarayonini mustaqil boshqarishga o'rgatadi. Eksperiment natijalari ko'rsatadiki, multimedia vositalari yordamida o'tilgan darslarda o'quvchilarning mavzuni tezroq o'zlashtirish va bilimlarni uzoqroq saqlash ko'rsatkichlari aniq sezildi. Amaliy mashqlar va o'yinlar orqali o'quvchilarning faolligi va qiziqishi oshdi, bu esa dars samaradorligini sezilarli darajada yaxshiladi.

Multimedia vositalari yordamida o'tilgan interaktiv darslar o'quvchilarning bilim darajasini va darsdagi faolligini oshiradi, eksperimental guruh nazorat guruhiga nisbatan yuqori natijalarni namoyish etdi, ko'rish, eshitish, talaffuz va o'yin elementlarini birlashtirish o'quvchilarning nutqiy va ijodiy ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. LearningApps va shunga o'xshash platformalar yordamida o'qituvchilar darsni vizual, interaktiv va mustaqil ishlashga moslashtirilgan shaklda tashkil etishlari mumkin. Multimedia vositalarini tizimli qo'llash darsni qiziqarli qiladi, o'quvchilarning e'tiborini jalb qiladi va o'zlashtirish jarayonini samarali qiladi. Tadqiqot boshida ilgari surilgan faraz – “Multimedia vositalarini qo'llash boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarning faolligi va bilim darajasini oshiradi” – eksperimental natijalar bilan tasdiqlandi.

### **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf ona tili darslarida multimedia vositalarini qo'llash o'quvchilarning bilim darajasi, faolligi va nutqiy ko'nikmalarini sezilarli darajada oshiradi. Ko'rish, eshitish, aytish va amaliy mashqlar orqali o'quvchilar bo'g'in, so'z va nutqiy strukturani mustahkam o'zlashtiradi. Interaktiv

metodlar darsni qiziqarli qiladi va o'quvchilarning e'tiborini uzluksiz saqlashga yordam beradi. LearningApps kabi platformalar yordamida o'quvchilar mustaqil ishlashni o'rganadi, o'z bilimini darhol tekshiradi va natijani baholay oladi. Multimedia vositalari nafaqat ona tili mavzularini tushuntirishda, balki umumiy nutqiy va ijodiy ko'nikmalarni rivojlantirishda ham samarali pedagogik vosita sifatida ishlatilishi mumkin. O'qituvchilarga ona tili darslarida multimedia vositalarini tizimli va maqsadga muvofiq qo'llash tavsiya etiladi. LearningApps va shunga o'xshash platformalardan interaktiv mashqlar, testlar va o'yinlar yaratishda foydalanish, darslarni vizual va audio elementlar bilan boyitish hamda amaliy mashqlar orqali mavzuni mustahkamlash samarali bo'ladi. Kelajakdagi tadqiqotlarda multimedia vositalarini individual o'quvchilar ehtiyojlariga moslashtirish samaradorligini o'rganish, har xil mavzular bo'yicha interaktiv darslarni solishtirish va samaradorligini baholash, shuningdek texnologik yangiliklarni, masalan, VR, AR yoki interaktiv doskalarni pedagogik jarayonga integratsiyalash imkoniyatlarini tadqiq qilish muhim hisoblanadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Azizxo'jayeva, N. Ona tili darslarida interaktiv metodlar. Toshkent: O'zbekiston, 2019.
2. Yo'ldoshev, B. Boshlang'ich sinf pedagogikasi. Toshkent: O'qituvchi nashriyoti, 2020.
3. Mayer, R. E. Multimedia Learning. Cambridge University Press, 2009.
4. Vygotsky, L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press, 1978.
5. Karimova, S. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirish. Pedagogika jurnal, 2021, №3, 45-52.
6. Rustamov, D. Ta'limda interaktiv texnologiyalardan foydalanish. Toshkent: Fan va Texnologiya, 2018.
7. LearningApps.org. Online interactive learning platform. <https://learningapps.org>, 2023.
8. Sobirova, M. Multimedia vositalarini boshlang'ich sinf darslarida qo'llash tajribasi. Ta'lim va innovatsiya, 2022, №4, 33-41.
9. Clark, R. C., Mayer, R. E. E-Learning and the Science of Instruction. San Francisco: Pfeiffer, 2016.
10. National Curriculum of Uzbekistan. Ona tili va adabiyot fanlari bo'yicha boshlang'ich sinf darsliklari, 2020.